


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmuradova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnudbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING HUDUDIIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI.....	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH.....	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH.....	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	349
A. B. Qurbonov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.....	375
Masharipova Maksuda Beknazarovna	
MEHNAT MUHOFAZASIDA INSON OMILINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	380
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	
BILIMGA ASOSLANGAN AVTONOM AGENTLAR VA RAG TEXNOLOGIYALARI.....	387
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASHDA QIYOSIY USTUNLIK (BALASSA) INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	395
Olchinboyev Otabek Abdusamad o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KORPORATIV MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	399
Abduraxmonov Farrux Talipjanovich	
HUJURLARNI ANIQLASH TIZIMLARIDA TAHDID MODELINI ISHLAB CHIQRISH.....	404
Barotova Zahro Akmaljon qizi	
G'ISHTNI QURITISH VA PISHIRISH JARAYONLARI.....	413
Askarov Xasanjon	
BUG' TURBINALI GENERATORLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNIK YECHIMLARI.....	417
Xudoyqulov Zoki, Eshbekov Muxriddin	
EFFECTIVE WAYS TO USE DEVICES OPERATING IN A MECHATRONICS SYSTEM.....	421
Makhammaillo Aliboyev	
KREATIV IQTISODIYOT VA GENDER INKLYUZIV RIVOJLANISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	427
Sharipova Aziza Faxriddin qizi	



DAVLAT TASHKIOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISH HOLATI VA INNOVATSION MODELLAR TAHLILI	431
Xurshida Maxmadaminova	
O'ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	440
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	



O'ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti doktoranti,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: oy_bek63@mail.ru

ORCID: 0009-0000-8518-8572

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotning rivojlanish holati va istiqbollari tahlil qilingan. 2024-yilga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kreativ industriyalar mahsulot va xizmatlar bozori hamda kreativ tovarlar va xizmatlar eksportining tarkibiy xususiyatlari baholangan. Tahlil natijalari raqamli texnologiyalar, madaniy meros, muzeylar faoliyati va dizayn sohalarida kreativ iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo'nalishlari ekanini, eksport faoliyatining salmoqli qismi esa Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Shuningdek, tarmoqlar va hududlar kesimida iqtisodiy faollik hamda eksport salohiyatining rivojlanish darajasi farqlanishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida kreativ iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida intellektual mulkni tijoratlashtirish, hududiy ixtisoslashuvga asoslangan klasterlarni rivojlantirish va eksport salohiyatini kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, kreativ industriyalar, kreativ tovarlar, kreativ xizmatlar, raqamli texnologiyalar, intellektual mulk, eksport, hududiy rivojlanish, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article analyzes the current state and prospects for the development of the creative economy in Uzbekistan. Based on official statistical data for 2024, the structural characteristics of the market for creative industry products and services, as well as exports of creative goods and services, are assessed. The results indicate that digital technologies, cultural heritage, museum activities, and design are the main areas driving the development of the creative economy, while a substantial share of export activity is concentrated in Tashkent. The study also identifies differences in the levels of economic activity and export potential across sectors and regions. Based on the findings, scientifically grounded proposals are developed to enhance the competitiveness of the creative economy through the commercialization of intellectual property, the development of clusters based on regional specialization, and the strengthening of export potential.

Keywords: creative economy, creative industries, creative goods, creative services, digital technologies, intellectual property, exports, regional development, competitiveness.

Аннотация. В статье проанализированы современное состояние и перспективы развития креативной экономики в Узбекистане. На основе официальных статистических данных за 2024 год оценены структурные особенности рынка продукции и услуг креативных индустрий, а также экспорта креативных товаров и услуг. Результаты анализа показали, что цифровые технологии, культурное наследие, деятельность музеев и дизайн являются основными направлениями развития креативной экономики, тогда как значительная часть экспортной деятельности приходится на город Ташкент. Кроме того, выявлены различия в уровнях экономической активности и экспортного потенциала в отраслевом и региональном разрезе. На основе результатов исследования разработаны научно обоснованные предложения по повышению конкурентоспособности креативной экономики посредством коммерциализации интеллектуальной собственности, развития кластеров с учётом региональной специализации и укрепления экспортного потенциала.

Ключевые слова: креативная экономика, креативные индустрии, креативные товары, креативные услуги, цифровые технологии, интеллектуальная собственность, экспорт, региональное развитие, конкурентоспособность.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va intellektual kapitalning ahamiyati ortishi natijasida kreativ iqtisodiyot milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu soha yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish, aholi bandligini ta'minlash hamda mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Shu bois UNCTAD [2], UNESCO [3], WIPO [4] kabi xalqaro tashkilotlar kreativ iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va inson kapitalidan samarali foydalanishni ta'minlovchi istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etmoqda.

Kreativ iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda iqtisodiy qiymatning asosiy manbai tabiiy resurslar yoki moddiy kapital emas, balki insonning ijodiy salohiyati, bilimlari, innovatsion g'oyalari va intellektual mulki hisoblanadi. Shu sababli kreativ industriyalarni rivojlantirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli



transformatsiyani jadallashtirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot va xizmatlar ulushini oshirish hamda hududlarning raqobat ustunliklarini kuchaytirish imkoni paydo bo'ladi.

Mavjud tadqiqotlarning aksariyati kreativ iqtisodiyotning nazariy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, uning amaliy rivojlanish tendensiyalari, iqtisodiy ko'rsatkichlari va hududlar kesimidagi tarkibiy xususiyatlarini kompleks statistik tahlil qilishga bag'ishlangan ishlar nisbatan kam uchraydi. Shu bois kreativ iqtisodiyotning iqtisodiy holatini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida baholash, uning tarmoqlar va hududlar bo'yicha rivojlanish xususiyatlarini aniqlash hamda iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotning rivojlanish holati, iqtisodiy mexanizmi va uni rag'batlantiruvchi dastaklarni tahlil qilish, shuningdek, 2024-yilga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kreativ industriyalar mahsulot va xizmatlar bozori hamda kreativ tovarlar va xizmatlar eksportining tarkibiy xususiyatlarini baholash hamda sohani yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, uning tarkibiy tuzilishi hamda iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari so'nggi yillarda xorijiy olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng tadqiq qilinmoqda. Ayniqsa, ushbu sohada kreativ industriyalarning iqtisodiy o'sish, eksport salohiyati, bandlik va innovatsion rivojlanishga qo'shayotgan hissasini baholashga qaratilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, Jon Xokins (John Howkins) kreativ iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy resursi sifatida intellektual mulk va insonning ijodiy salohiyatini e'tirof etadi. Uning fikricha, kreativ iqtisodiyotning asosiy natijasi patentlar, mualliflik huquqlari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlari orqali iqtisodiy qiymat yaratish hisoblanadi [5]. Ushbu yondashuv kreativ iqtisodiyotni an'anaviy tarmoqlardan farqlovchi asosiy xususiyat sifatida intellektual kapitalning ustuvorligini asoslab beradi.

Charlz Lendri (Charles Landry) esa kreativ iqtisodiyotni hududlarning innovatsion rivojlanishi bilan bog'lab o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, kreativ industriyalarning rivojlanishi inson kapitali, madaniy muhit, shahar infratuzilmasi va innovatsion ekotizimning o'zaro uyg'unligiga bog'liq bo'lib, aynan shu omillar shaharlar va hududlarning raqobatbardoshligini belgilaydi [6].

Kreativ industriyalarning iqtisodiy mohiyati va tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilishda Devid Xesmondhalgning (David Hesmondhalgh) tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Olim kreativ industriyalarni madaniy mahsulotlar ishlab chiqarish, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish hamda bozor munosabatlari bilan uzviy bog'liq iqtisodiy faoliyat sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, u raqamli texnologiyalar kreativ mahsulotlarni ishlab chiqarish va tarqatish mexanizmlarini tubdan o'zgartirganligini qayd etadi [7].

Kreativ iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda Per Luidji Sakko (Pier Luigi Sacco) madaniyat va kreativlikni inson kapitali, innovatsiyalar va iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liq tizim sifatida talqin qiladi. Uning yondashuviga ko'ra, kreativ industriyalarni rivojlantirish nafaqat madaniy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytiradi, balki innovatsion faollikni kuchaytiradi, xizmatlar sohasini rivojlantiradi va hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi [8].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-metodik yondashuvlar ham kreativ iqtisodiyotni baholashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, UNESCO madaniy va kreativ industriyalarni tasniflash hamda ularning statistik ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha Framework for Cultural Statistics (2009) metodologiyasini taklif qilgan [3]. UNCTAD esa kreativ iqtisodiyotni xalqaro savdo, eksport va iqtisodiy o'sish nuqtayi nazaridan baholashga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqqan bo'lib, 2024-yilgi hisobotida kreativ tovarlar va xizmatlarning jahon iqtisodiyotidagi ulushi tobora ortib borayotganini ta'kidlaydi [2]. Shuningdek, WIPO intellektual mulkni kreativ iqtisodiyot rivojlanishining asosiy institutsional mexanizmi sifatida baholab, innovatsiyalar va kreativ industriyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab beradi (WIPO, 2024) [4].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda asosiy e'tibor kreativ iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning tarkibiy xususiyatlari va statistik baholash metodologiyasiga qaratilgan. Biroq kreativ industriyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi real iqtisodiy holati, mahsulot va xizmatlar bozorining tarkibiy xususiyatlari hamda hududlar kesimidagi eksport salohiyatini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kompleks baholash masalalari hali yetarlicha yoritilmagan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotning iqtisodiy holati, tarkibiy xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida baholashga qaratilganligi bilan mavjud tadqiqotlardan farq qiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlilning ilmiy usullari sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, umumlashtirish va induksiya-deduksiya usullaridan foydalanildi. Kreativ industriyalar faoliyatining tarmoqlar va hududlar kesimidagi iqtisodiy holatini baholash maqsadida 2024-yilga oid rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, mahsulot va xizmatlar bozori hajmi, kreativ tovarlar hamda xizmatlar eksporti tarkibi va ularning iqtisodiy tendensiyalari qiyosiy baholandi. Bunda absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar, tarkibiy ulushlar hamda iqtisodiy umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, UNCTAD, UNESCO va WIPOning rasmiy hisobotlari, shuningdek, sohaga oid ilmiy nashrlar tashkil etdi [9], [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ham kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, sohaning huquqiy va institutsional asoslari bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Jumladan, «Kreativ iqtisodiyot to'g'risida»gi Qonunning [1] qabul qilinishi, Milliy statistika qo'mitasi tomonidan kreativ iqtisodiyotni baholash bo'yicha uslubiy nizomning [11] tasdiqlanishi hamda kreativ industriyalar bo'yicha rasmiy statistik hisobotlarni shakllantirish amaliyotining yo'lga qo'yilishi ushbu sohani tizimli tahlil qilish imkoniyatini yaratdi.

Shu bilan birga, kreativ iqtisodiyotning rivojlanish darajasini baholashda faqat institutsional islohotlarni tahlil qilish yetarli emas. Sohaning haqiqiy iqtisodiy salohiyati mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, eksport tarkibi, qo'shilgan qiymat yaratish darajasi hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi orqali namoyon bo'ladi.

1-jadval

2024-yilda kreativ industriya sohalari kesimida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar bozori hajmi [12] mlrd so'mda

No	Kreativ industriya sohalari	Hajm	Ulush, %
1.	Raqamli texnologiyalar	32 660,65	58,5
2.	Madaniy meros	4 915,73	8,8
3.	Muzey, badiiy galereya va kutubxona faoliyati	4 880,32	8,7
4.	Moda va dizayn	4 792,11	8,6
5.	Amaliy san'at va hunarmandchilik	4 564,40	8,0
6.	Ijrochilik san'ati	2 010,37	3,6
7.	Prodyuserlik	1 208,30	2,2
8.	Nashriyot va matbaa	526,52	0,9
9.	Audiovizual san'at	469,66	0,8
10.	OAV va internet media	385,35	0,7
11.	Arxitektura va urbanistika	208,69	0,4
12.	Konsert-tomosha faoliyati	129,33	0,2
13.	Reklama	33,26	0,1
14.	Adabiyot	12,97	0,02
15.	Tasviriy san'at	0,23	0,001
	Jami	56 797,90	100,0

2024-yilda O'zbekistonda kreativ industriyalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy bozor hajmi 56 797,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu kreativ iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoq sifatida tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

Jadval ma'lumotlari kreativ industriyalar bo'yicha iqtisodiy faollik darajasi tarmoqlar kesimida farqlanishini ko'rsatadi.

Eng yuqori ulush raqamli texnologiyalar hissasiga to'g'ri kelib, uning bozor hajmi 32 660,65 mlrd so'm yoki umumiy hajmning 58,5 foizini tashkil etgan. Keyingi o'rinlarni madaniy meros (8,8 foiz), muzey, badiiy galereya va axborot-kutubxona faoliyati (8,7 foiz) hamda moda va dizayn (8,6 foiz) egallab, ushbu to'rtta yo'nalish birgalikda umumiy bozor hajmining 84,6 foizini shakllantirgan. Ushbu tarkibiy tuzilma O'zbekistonda



kreativ iqtisodiyotning o'sishi, avvalo, raqamli texnologiyalar va madaniy resurslarga tayangan holda shakllanayotganini, ayrim kreativ industriya tarmoqlarida esa iqtisodiy faollikni diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Amaliy san'at va hunarmandchilik sohasi 4 564,40 mlrd so'm yoki 8,0 foiz ulush bilan beshinchi o'rinni egallagan bo'lib, bu milliy hunarmandchilik va turizm bilan bog'liq kreativ mahsulotlarga talab barqaror ekanini anglatadi.

Ijrochilik san'ati (3,6 foiz), prodyuserlik (2,2 foiz), nashriyot va matbaa (0,9 foiz), audiovizual san'at (0,8 foiz), ommaviy axborot vositalari va internet-media (0,7 foiz), arxitektura va urbanistika (0,4 foiz), konsert-tomosha faoliyati (0,2 foiz), reklama (0,1 foiz), adabiyot hamda tasviriy san'atning umumiy bozor hajmidagi ulushi nisbatan kamroq bo'lib, mazkur yo'nalishlarni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Xususan, intellektual mulkni tijoratlashtirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy biznes modellarini keng joriy etish ushbu sohalarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, tahlil natijalari O'zbekiston kreativ iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar, madaniy meros va dizayn yetakchi yo'nalishlar ekanini, boshqa kreativ industriya tarmoqlarida esa mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy faollikni yanada oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

2-jadval

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida kreativ tovarlar va xizmatlar eksporti [12]

mln AQSh dollari

№	Hudud	Eksport hajmi	Ulush, %
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1.3	0.2%
2.	Andijon	25.8	3.5%
3.	Buxoro	19.7	2.7%
4.	Jizzax	5.6	0.8%
5.	Qashqadaryo	2.3	0.3%
6.	Navoiy	4.2	0.6%
7.	Namangan	5.1	0.7%
8.	Samarqand	21.2	2.90%
9.	Surxondaryo	2.6	0.4%
10.	Sirdaryo	2.6	0.4%
11.	Toshkent viloyati	26.6	3.6%
12.	Farg'ona	8.9	1.2%
13.	Xorazm	16.5	2.3%
14.	Toshkent shahri	522.7	71.5%
15.	Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajm	66.4	9.1%
	Jami	731.5	100.00%

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida kreativ tovarlar va xizmatlar eksporti 731,5 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, uning hududlar kesimidagi tarkibi eksport faoliyatining yuqori darajada konsentratsiyalashganligini ko'rsatadi (2-jadval). Jami eksportning 71,5 foizi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelgan. Bu poytaxtda axborot texnologiyalari, arxitektura, dizayn, audiovizual mahsulotlar, nashriyot, reklama va boshqa intellektual xizmatlar rivojlanganligi, shuningdek, kreativ ekotizim, malakali inson kapitali va raqamli infratuzilmaning yuqori darajada shakllanganligi bilan izohlanadi.

Toshkent viloyati (3,6 foiz), Andijon (3,5 foiz), Samarqand (2,9 foiz), Buxoro (2,7 foiz) va Xorazm (2,3 foiz) viloyatlari eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlarni egallaydi. Ushbu hududlarda eksport tarkibi hududiy ixtisoslashuvni aks ettirib, Andijon va Samarqandda hunarmandchilik, mebel, to'qimachilik va arxitektura xizmatlari, Buxoro hamda Xorazmda milliy hunarmandchilik, zargarlik va turizm bilan bog'liq kreativ mahsulotlar, Farg'ona, Namangan va Navoiy viloyatlarida esa dizayn, to'qimachilik hamda biznes xizmatlari eksportining rivojlanayotgani kuzatiladi. Bu ushbu hududlarda kreativ mahsulotlar eksportini diversifikatsiya qilish uchun zarur iqtisodiy asoslar shakllanayotganini ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida kreativ eksport hajmini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud.

Bu ushbu hududlarda kreativ mahsulotlarni brend yaratish va rivojlantirish, elektron savdo platformalaridan foydalanish, eksport infratuzilmasini takomillashtirish hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilish yo'nalishlarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqligini anglatadi. Shuningdek, eksportning 9,1 foizi hududlar bo'yicha taqsimlanmaganligi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni hisobga olishda muayyan statistik xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari O'zbekistonda kreativ eksportning ikki asosiy yo'nalishda shakllanayotganini ko'rsatadi. Birinchi yo'nalish Toshkent shahrida intellektual xizmatlar, raqamli texnologiyalar va kreativ xizmatlar eksportining yuqori darajada jamlanganligi bilan tavsiflansa, ikkinchi yo'nalish hududlarda milliy hunarmandchilik, dizayn, to'qimachilik, mebel va madaniy merosga asoslangan kreativ tovarlar eksportining bosqichma-bosqich rivojlanayotganligi bilan izohlanadi. Shu bois har bir hududning mavjud kreativ ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda eksportga yo'naltirilgan klasterlarni rivojlantirish, milliy brendlarni shakllantirish va raqamli eksport kanallarini kengaytirish kreativ iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur huquqiy, institutsional va statistik asoslar shakllanganligini hamda ushbu soha milliy iqtisodiyotning yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylanayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, kreativ industriyalarning rivojlanish darajasi tarmoqlar va hududlar kesimida farqlanishi, iqtisodiy faollik va eksport salohiyatining asosan ayrim sohalar hamda hududlarda jamlanganligi aniqlandi. Muallif tomonidan O'zbekiston kreativ iqtisodiyotining tarmoq va hududlar kesimida rivojlanish xususiyatlari kompleks statistik tahlil qilinib, kreativ eksportni hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuv taklif etildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ta'lim, ilm-fan va biznes integratsiyasini kuchaytirish, kreativ industriyalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, intellektual mulkni boshqarish, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va eksport faoliyatiga oid tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Kreativ industriyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, kreativ startaplar va xususiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy faolligi nisbatan past bo'lgan kreativ industriya tarmoqlarini rag'batlantirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarur.

Kreativ iqtisodiyotning hududiy va eksport salohiyatini kuchaytirish maqsadida har bir hududning mavjud raqobat ustunliklari va kreativ ixtisoslashuviga asoslangan klasterlarni rivojlantirish, milliy kreativ mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarga chiqarish uchun raqamli eksport platformalari, milliy brend yaratish va rivojlantirish tizimi va zamonaviy marketing vositalarini keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi kreativ iqtisodiyotning tarkibiy muvozanatini ta'minlash, uning eksport salohiyati va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi. Kreativ iqtisodiyot to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-oktabrdagi O'RQ-970-son Qonuni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/7129258> (murojaat sanasi: 29.07.2026).
2. UNCTAD. *Advancing the Measurement of the Creative Economy: A Revised Framework for Creative Industries and Trade* [Electronic resource]. — Geneva: United Nations, 2024. — URL: https://unctad.org/system/files/official-document/ditctsce2024d1_en.pdf (date of access: 29.07.2026).
3. UNESCO Institute for Statistics. *The 2009 UNESCO Framework for Cultural Statistics* [Electronic resource]. — Montreal: UNESCO Institute for Statistics, 2009. — URL: https://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/unesco-framework-for-cultural-statistics-2009-en_0.pdf (date of access: 29.07.2026).
4. World Intellectual Property Organization. *Global Innovation Index 2024: Unlocking the Promise of Social Entrepreneurship* [Electronic resource]. — Geneva: WIPO, 2024. — URL: <https://www.wipo.int/web-publications/global-innovation-index-2024/en/> (date of access: 29.07.2026).
5. Howkins, J. *The Creative Economy: How People Make Money from Ideas* / J. Howkins. — London: Allen Lane, 2001. — 263 p.
6. Landry, C. *The Creative City: A Toolkit for Urban Innovators* / C. Landry. — 2nd ed. — London: Earthscan, 2008. — 350 p.
7. Hesmondhalgh, D. *The Cultural Industries* / D. Hesmondhalgh. — 4th ed. — London: SAGE Publications, 2019. — 568



- p.
8. Sacco, P. L. *Culture 3.0: A New Perspective for the EU 2014–2020 Structural Funds Programming* [Electronic resource] / P. L. Sacco. — Brussels: European Expert Network on Culture, 2011. — URL: <https://www.gepac.gov.pt/upload/processos/d053659.pdf> (date of access: 29.07.2026).
 9. Dusmukhamedov, O. Kreativ, innovatsion va an'anaviy iqtisodiyot: ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qiyosiy tahlili / O. Dusmukhamedov // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. — 2026. — № 1. — B. 18–23.
 10. Dusmukhamedov, O. Analysis of the Factors and Economic Mechanisms of Creative Economy Development in Uzbekistan / O. Dusmukhamedov // American Journal of Economics and Business Management. — 2026. — Vol. 9, Issue 1. — P. 183–190.
 11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kreativ iqtisodiyotni baholash bo'yicha uslubiy nizom: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 30-noyabrdagi 22-son qaroriga ilova. — Toshkent, 2025.
 12. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100